

KASBIY STANDART

Ommaviy axborot vositalari sohasi

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I.Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ommaviy axborot vositalari sohasi Kasbiy standart Muxbirlar byurosi mudiri, Badiiy muharrir, Gazeta va jurnallar redaksiyasi muxbiri, Muharrir, Gazeta muharrir, Siyosiy sharhlovchi, Sharhlovchi, Iqtisodiy masalalar sharhlovchisi, Mas'ul muharrir, Mas'ul chiqaruvchi kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

axborot — manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

axborot mulkdori — o'z mablag'iga yoki boshqa qonuniy yo'l bilan olingan axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

axborotni muhofaza etish — axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari;

axborot resurslari — alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to'plamlari, axborot tizimlaridagi (axborot-kutubxona muassasalaridagi, arxivlardagi, idoraviy arxivlardagi, fondlardagi, ma'lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to'plamlari;

axborot sohasi — subyektlarning axborotni yaratish, qayta ishlash va undan foydalanish bilan bog'liq faoliyati sohasi;

axborot borasidagi xavfsizlik — axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati;

axborot egasi — qonunda yoki axborot mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

bilim — kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

hujjatlashtirilgan axborot — identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot;

informal ta'lim — aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb — ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi — kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri — bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma — mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi — mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari — xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

maxfiy axborot — foydalanilishi qonunchilikka muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot;

norasmiy ta'lim — ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

ommaviy axborot — cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi-400-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi-402-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi-439-II-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi-42-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 26-noyabrdagi "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi-731-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-martdagi "Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4640-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-294-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PQ-345-son "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son Qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Ommaviy axborot vositalari sohasi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	OAV sohasi kasbiy faoliyatining asosiy maqsadi – jamiyat va davlat o'rtasida samarali axborot almashinuvini ta'minlash, fuqarolarning xabardorlik darajasini oshirish va jamoatchilikka xizmat qilishdir.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	C Seksiyasi Ishlab chiqaradigan sanoat 18 Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish 18.1 Matbaa va matbaa bilan bog'liq xizmatlar 18.11 Gazetalar nashr qilish 18.11.0 Gazetalar nashr qilish 18.12 Matbaa faoliyatining boshqa turlari 18.12.0 Matbaa faoliyatining boshqa turlari	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ommaviy axborot vositalari sohasi kasbiy standarti jurnalist, muharrir, tahlilchi, operator, prodyuser va boshqa media mutaxassislarining faoliyatini tartibga solib, ularning kasbiy mahorati, bilim va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni belgilash	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		13490026 Muxbirlar byurosi mudiri	6
		26421004 Iqtisodiy masalalar bo'yicha sharhlovchi	6
		26422001 Badiiy muharrir	6
		26422004 Gazeta muharriri	6
		26422007 Mas'ul muharrir	6
		26421002 Gazeta muxbiri	6
		26421015 Sharhlovchi	6
		26421016 Siyosiy sharhlovchi	6
		26422 Mas'ul chiqaruvchi	6
		26422008 Muharrir (umumiy)	7

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	13490026 Muxbirlar byurosi mudiri	A1.6	Axborot siyosatini belgilash va rejalashtirish	A1.01.6	Muhim voqea va jarayonlarni yoritish yo'nalishlarini aniqlash, materiallar mavzusini rejalashtirish
				A1.02.6	Manbalarni tanlash, axborotning haqqoniyligi va ishonchligini ta'minlash
		A2.6	Jurnalistlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish	A2.01.6	Muxbirlar va boshqa xodimlarga topshiriqlar berish, ularning ishini tashkil qilish
				A2.02.6	Tayyorlangan materiallarning sifati, xolisligi va tahririy talablariga muvofiqligini nazorat qilish
		A3.6	Axborot materiallarini tahrirlash va nashrga tayyorlash	A3.01.6	Yuborilgan maqola, reportaj va axborotlarni ko'rib chiqish, tahrir qilish
				A3.02.6	Axborot siyosati va kasbiy etika talablariga muvofiqligini ta'minlash
2.	26421004 Iqtisodiy masalalar bo'yicha sharhlovchi	B1.6	Iqtisodiy tahlil va prognozlardan foydalanish	B1.01.6	Milliy hamda xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil ishlarini olib borish
				B1.02.6	Statistik ma'lumotlar, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy indikatorlarni o'rganib, ular asosida kelgusidagi iqtisodiy ahvol bo'yicha prognozlar tuzish
		B2.6	Iqtisodiy siyosat va qarorlar ta'sirini baholash	B2.01.6	Hukumat yoki boshqa tashkilotlar tomonidan kiritilayotgan iqtisodiy siyosat, qonun yoki tashabbuslarning ijtimoiy- iqtisodiy samarasini tahlil qilish
				B2.02.6	Soliqlar, tariflar, import-eksport regulyatsiyasi kabi masalalar bo'yicha ta'sirini o'rganib, tavsiyalar ishlab chiqish

		B3.6	Hisobot va sharh tayyorlash hamda axborot yetkazish	B3.01.6	Tahliliy maqolalar, sharhlar, iqtisodiy hisobotlar tayyorlash va ularni keng auditoriyaga tushunarli shaklda yetkazish
				B3.02.6	Bozor, valyuta kursi, inflyatsiya, investitsiyalarning holati kabi dolzarb mavzular bo'yicha matbuot uchun sharhlar tayyorlash
3.	26422001 Badiiy muharrir	D1.6	Mavzuni tanlash, materiallarni saralash va tayyorlash	D1.01.6	Axborot manbalaridan dolzarb ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va auditoriya uchun muhim mavzularni ajratib olish
				D 1.02.6	Mualliflik materiallarini tanlash, ularning sifatini tekshirish va nashr uchun mosligini baholash
		D 2.6	Nashr loyihalarini qayta ishlash (tahrirlash)	D2.01.6	Matnlarning mazmuni, tuzilishi, faktik to'g'riligi va uslubini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish
				D2.02.6	Mualliflar bilan hamkorlikda loyihalarni takomillashtirish, konsepsiyani ishlab chiqish va zarur tuzatishlarni kiritish
		D 3.6	Tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarni boshqarish	D3.01.6	Auditoriya, davlat idoralari, ekspertlar va professional hamjamiyat bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish
				D3.02.6	Axborot siyosatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni monitoring qilish va ularga tezkor munosabat bildirish
4.	26422004 Gazeta muharriri	E1.6	Nashr siyosatini shakllantirish va rejalashtirish	E1.01.6	Gazetaning tahririy siyosatini, yo'nalishini va mavzu rejasini ishlab chiqish
				E1.02.6	Jamoa faoliyatini boshqarish, materiallarni taqsimlash va ularning ijrosini nazorat qilish
		E2.6	Materiallarni tahrirlash va qayta ishlash	E2.01.6	Mualliflik materiallarini mazmun, uslub, til va faktik jihatdan tekshirish, tahrir qilish
				E2.02.6	Publikatsiyalarni gazeta formati va auditoriya talablariga moslashtirish
		E3.6	Nashr jarayonini muvofiqlashtirish	E3.01.6	Gazeta sonini tayyorlash jarayonini boshqarish (layout, texnik tayyorgarlik, dizayn, joylashtirish)
				E3.02.6	Reklama, dizayn va texnik xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar bilan hamkorlik qilish
5.		F1.6	Tahririy siyosatni amalga oshirish	F1.01.6	Nashrning maqsad va vazifalariga mos keladigan mavzularni tanlash va ularni rejalashtirish

6.	26422007 Mas'ul muharrir	F2.6	Materiallarni yakuniy nazorat va tahrir qilish	F1.02.6	Nashr materiallarining umumiy konsepsiyasi va yo'nalishini belgilash
				F2.01.6	Mualliflik materiallarini faktik to'g'riligi, mazmuniy aniqligi va uslubiy talablar bo'yicha tekshirish
				F2.02.6	Matnlardagi huquqiy, siyosiy va axloqiy jihatlarni baholash va nazorat qilish
		F3.6	Nashr jarayonini muvofiqlashtirish va sifatini ta'minlash va nashr uchun mas'uliyatni ta'minlash	F3.01.6	Tahririyat a'zolari, mualliflar va dizaynerlar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish
				F3.02.6	Gazeta/jurnalning vaqtida, sifatli va talabga javob beradigan shaklda chiqishini ta'minlash
				F3.03.6	Qonunchilik talablariga rioya qilinishini nazorat qilish (mualliflik huquqi, axborot xavfsizligi, axloq normalari)
	26421002 Gazeta muxbiri	G1.6	Axborot yig'ish va tahlil qilish	G1.01.6	Turli manbalardan (rasmiy hujjatlar, axborot agentliklari, guvohlar) ma'lumot yig'ish
				G1.02.6	Olingan ma'lumotlarning ishonchligini tekshirish va solishtirish
				G1.03.6	Muhim voqealarni tahlil qilish va dolzarbligini aniqlash
		G2.6	Jurnalistik material tayyorlash	G2.01.6	Reportaj, maqola, intervyu, sharh va boshqa materiallarni yozish
				G2.02.6	Matnni uslubiy, grammatik va mazmuniy jihatdan tahrirlash
				G2.03.6	Materiallarni redaksiyaning siyosati va auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish
		G3.6	Jamoatchilik bilan aloqa va hamkorlik	GJ3.01.6	Manbalar, mutaxassislar va tashkilotlar bilan doimiy aloqada bo'lish
				G3.02.6	O'quvchilar va auditoriyaning talablarini o'rganish va ularga javob berish
				G3.03.6	Redaksiya topshiriqlari asosida tadbir, matbuot anjumani va uchrashuvlarda ishtirok etish
7.	26421015 Sharhlovchi	H1.6	Aktual voqealar bo'yicha sharhlar tayyorlash	H1.01.6	Dolzarb ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash
				H1.02.6	Materiallarni auditoriya ehtiyojlari va dolzarbligiga muvofiq tahlil qilish
		H2.6	Sharhlarni yozib olish va jonli efirga tayyorlash	H2.01.6	Cheklangan vaqt doirasida sharh materiallarini tayyorlash
				H2.02.6	Sharh janriga mos uslubda auditoriyani mustaqil xulosaga undaydigan chiqishlar qilish

		H3.6	Efir jarayonini amalga oshirish	H3.01.6	Studiyada yoki tashqarida efir dasturlarini tayyorlash va olib borish
				H3.02.6	Audio va video jihozlardan samarali foydalanib, jonli efirda ishlash
8.	26421016 Siyosiy sharhlovchi	K1.6	Siyosiy jarayonlarni tahlil qilish	K1.01.6	Milliy va xalqaro siyosiy voqealarni kuzatib borish, ular asosida tahliliy materiallar tayyorlash
				K1.02.6	Siyosiy qarorlar, qonunlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash
		K2.6	Siyosiy sharh va fikrlarni shakllantirish hamda yetkazish	K2.01.6	Auditoriyaga tushunarli, obyektiv va analitik sharhlar tayyorlash
				K2.02.6	Jonli efirda yoki intervyu shaklida siyosiy mavzulari bo'yicha fikr almashish va muhokama qilish
		K3.6	Axborot manbalarini tekshirish va daromadli material tayyorlash	K3.01.6	Manbalarning ishonchliligini tekshirish, propaganda va soxta axborotlardan saqlanish
				K3.02.6	Siyosiy sharhlar uchun statistika, ekspert fikrlari, huquqiy ma'lumotlar va manbalarni yig'ish hamda strukturaviy material yaratish
9.	26422 Mas'ul chiqaruvchi	L1.6	Nashr jarayonini muvofiqlashtirish	L1.01.6	Muharrir, muxbir va boshqa ijodiy xodimlar ishini tashkil etish va boshqarish
				L1.02.6	Materiallarning o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish
				L1.03.6	Nashr jadvali va muddatlarga rioya etilishini ta'minlash
		L2.6	Materiallar sifatini nazorat qilish	L2.01.6	Matnlarning tahririy siyosat, qonunchilik va axloqiy normalarga mosligini tekshirish
				L2.02.6	Faktlarning haqqoniyligi va ishonchliligini baholash
				L2.03.6	Til, uslub va dizayn talablariga rioya etilishini ta'minlash
		L3.6	Nashrni chiqarishga tayyorlash	L3.01.6	Gazeta/jurnal maketlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash
				L3.02.6	Bosmaxona va texnik xizmatlar bilan hamkorlik qilish
				L3.03.6	Tayyor nashrning sifatini yakuniy nazoratdan o'tkazish
10.		M1.7	Matnlarni tahrirlash va adabiy ishlov berish	M1.01.7	Muallif matnidagi grammatik, imloviy va uslubiy xatolarni tuzatish
				M1.02.7	Matnning mantiqiy izchilligi va o'qish qulayligini ta'minlash

	26422008 Muharrir (umumiy)	M2.7	Nashr jarayonini tashkil etish va nazorat qilish	M2.01.7	Nashr rejasini shakllantirishda ishtirok etish
				M2.02.7	Materiallarni faktologik va mazmuniy jihatdan tekshirish
				M2.03.7	Nashr muddatlari va sifat standartlariga rioya qilinishini ta'minlash
		M3.7	Ijodiy va uslubiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash	M3.01.7	Mualliflarga tahrir bo'yicha tavsiyalar berish
				M3.02.7	Yangi jurnalist va mualliflarni o'qitish, uslubiy seminarlar tashkil qilish
				M3.03.7	Nashr uslubiy siyosatini ishlab chiqish va yangilashda ishtirok etish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Muxbirlar byurosi mudiri
Mashg'ulot nomining kodi:	13490
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1-yillik ish staji talab etiladi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Ishga munosabat va xulq-atvor: -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda raven bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. -Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; -Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat, o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-

Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari:		Xizmatchi Boshqaruv xodimi Muxbirlar byurosi mudiri	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR boʻyicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		6	Iqtisodiy masalalar sharhlovchisi
		6	Badiiy muharrir
		6	Gazeta muharriri
		6	Masʼul muharrir
		6	Muharrir
		6	Sharhlovchi
		6	Siyosiy sharhlovchi
		6	Masʼul chiqaruvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
A1.6- Axborot siyosatini belgilash va rejalashtirish	A1.01.6- Muhim voqea va jarayonlarni yoritish yoʻnalishlarini aniqlash, materiallar mavzusini rejalashtirish	Oʻqitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Dolzarb voqea va hodisalarni aniqlash va ularni tahririyat siyosati asosida tasniflash	
		2. Materiallar mavzusini muxbirlar oʻrtasida taqsimlash va ijodiy guruhlarga topshiriq berish	
		3. Rejalashtirilgan mavzular asosida byuro ish rejasini shakllantirish va muddatlarni belgilash	
		Koʻnikmalar:	
		Axborot manbalarini monitoring qilish va dolzarb mavzularni tezkor aniqlash	
		Jurnalistlar jamoasiga mavzu boʻyicha vazifalarni aniq ifodalash va muvofiqlashtirish	
		Ommaviy axborot vositalarida rejalashtirilgan materiallarning jamiyat uchun ahamiyatini baholash	
		Bilimlar:	
	Media bozori va jamoatchilik manfaatlari asosida mavzularni tanlash tamoyillari		
	Axborot siyosati, jurnalistika etikasi va OAV faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar		
	Rejalashtirish, redaksion menejment va axborot oqimlari tahlili boʻyicha bilimlar		
	A1.02.6- Manbalarni tanlash, axborotning haqqoniyligi va ishonchliligini taʼminlash	Mehnat harakatlari:	
		1. Turli axborot manbalarini (rasmiy hujjatlar, ekspertlar, guvohlar, OAV, ijtimoiy tarmoqlar) qiyoslab tahlil qilish	
		2. Axborot manbalarini ishonchlilik, haqqoniylik va dolzarblik mezonlari asosida tekshirish	
		3. Qarama-qarshi maʼlumotlarni solishtirish va faktcheking (fact-checking) orqali toʻgʻrilikni aniqlash	
Koʻnikmalar:			
Axborotni tanlash va qayta tekshirish boʻyicha faktcheking usullaridan foydalanish			

		Turli tipdagi manbalar bilan professional muloqot o'rnatish va ishonchli aloqalarni yo'lga qo'yish
		Ma'lumotlarni tahlil qilishda tanqidiy fikrlash va xolislikni saqlash
		Bilimlar:
		Jurnalistika etikasi va axborotning haqqoniyligi bo'yicha xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlar.
		Manbalar turlari, ularning ishonchliligini aniqlash usullari va axborot xavfsizligi prinsiplari.
		Faktcheking metodologiyasi, manbalarni baholash va yolg'on axborotni fosh qilish usullari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Axborot siyosatini ishlab chiqish va strategik rejalashtirishda to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga olis'h
		Tahririyat va OAV faoliyati uchun asosiy ustuvor yo'nalishlarni belgilashda mustaqil qaror qabul qilish
		Qabul qilingan siyosiy va strategik qarorlar uchun rahbariyat va jamoa oldidagi javobgarlik
		Axborot siyosati bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning uzoq muddatli oqibatlarini baholashda mas'uliyatli va mustaqil yondashuvni ta'minlash
A2.6- Jurnalistlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish	A2.01.6- Muxbirlar va boshqa xodimlarga topshiriqlar berish, ularning ishini tashkil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Muxbirlar va ijodiy xodimlarga mavzu, muddat va vazifalarni aniqlab topshirish
		2. Berilgan topshiriqlarni bajarilish jarayonini nazorat qilish va kerakli uslubiy yordam ko'rsatish
		3. Xodimlar ishini muvofiqlashtirish, jamoa ichida samarali axborot almashuvini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Xodimlar faoliyatini rejalashtirish
		Delegatsiya qilish (vazifalarni to'g'ri taqsimlash)
		Ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tezkor hal etish
		Bilimlar:
		Mehnat jamoasini boshqarish va tashkiliy boshqaruvning zamonaviy metodlari
	A2.02.6- Tayyorlangan materiallarning sifati, xolisligi va tahririy talablariga muvofiqligini nazorat qilish	OAV redaksiyalari faoliyati, jurnalistlar ish jarayoni va mehnat taqsimoti tamoyillari
		Rahbarlik etikasi, xizmat vazifalarini delegatsiya qilish qoidalari va kommunikatsiya texnologiyalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Muxbirlar tayyorlagan materiallarni faktologik, uslubiy va mazmuniy jihatdan tekshirish
		2. Materiallarning tahririy siyosat, qonun va axloqiy normalarga muvofiqligini baholash
		3. Xolislikni buzuvchi, noto'g'ri yoki tendensioz ma'lumotlarni aniqlash va tuzatish bo'yicha ko'rsatmalar berish
		Ko'nikmalar:

		Matnlarni tahlil qilish va xolis baholash
		Muharrir va axloqiy me'yorlarni qo'llash
		Tahririy tuzatishlar kiritish va yakuniy sifatni ta'minlash
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasi OAV to'g'risidagi qonun hujjatlari, jurnalistika etikasining asoslari
		Tahririy siyosat, janr talablari va nashr me'yorlari
		Faktcheking usullari, uslubiy va lingvistik tahlil metodlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Jurnalistlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirishda shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
		Berilgan topshiriqlar va ularning sifatli bajarilishi uchun hisobdor bo'lish
		Jamoa ishini boshqarishda va qaror qabul qilishda mustaqill umumiy tahririyat siyosati va rahbariyat ko'rsatmalariga rioya etish zarur
		Nizoli vaziyatlarni hal qilish, ustuvor vazifalarni belgilash va jamoaning samaradorligini oshirishda mas'uliyatli va mustaqil qarorlar qabul qilish
A3.6- Axborot materiallarini tahrirlash va nashrga tayyorlash	A3.01.6- Yuborilgan maqola, reportaj va axborotlarni ko'rib chiqish, tahrir qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Yuborilgan maqola va reportajlarni mazmunan tahlil qilish va faktologik xatoliklarni aniqlash
		2. Materialning til, uslub va janr talablariga mosligini tekshirish
		3. Axborotlarni muharririy siyosat va me'yoriy hujjatlar asosida tahrir qilish
		4. Yakuniy shakllantirilgan materialni chop etish yoki efirga uzatish uchun tasdiqlash
		Ko'nikmalar:
		Tahririy me'yorlar va jurnalistik etikaga muvofiq materiallarni qayta ishlash
		Ommaviy axborot vositalari uchun xolis, ravon va tushunarli matn tuzish
		Axborot manbalarini solishtirish va faktlarni tekshirish
		Muharririy dasturlar (MS Word, Google Docs, maxsus media platformalar)dan samarali foydalanish
		Bilimlar:
		Ommaviy axborot vositalari qonunchiligi va axloqiy me'yorlari
		Jurnalistika janrlari, uslublari va tahririy standartlari
		Tilshunoslik va stilistika asoslari, imlo va punktuatsiya qoidalari
		Zamonaviy OAV texnologiyalari va axborot manbalarini tekshirish usullari

	A3.02.6- Axborot siyosati va kasbiy etika talablariga muvofiqligini ta'minlash	Mehnat harakatlari: 1. Yuborilgan materiallarni axborot siyosati va kasbiy etika normalariga muvofiqligini tahlil qilish 2. Noxolis, diskriminatsion yoki qonunbuzarlik ruhidagi materiallarni qayta ishlash yoki rad etish 3. Muharririy siyosat asosida jurnalistlarga tavsiyalar berish va ularning faoliyatini yo'naltirish 4. Axborot siyosatiga zid holatlarni hujjatlashtirish va rahbariyatga hisobot taqdim etish Ko'nikmalar: Axborot siyosati va kasbiy etika talablarini amaliyotda qo'llash Materiallarda diskriminatsiya, yolg'on yoki biryozlamalikni aniqlash Etik me'yorlarga zid holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish Muharririy jamoada mas'uliyatli va odilona ish muhitini ta'minlash Bilimlar: Ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari Axborot siyosati va jurnalistik etik kodeks asoslari Axborotning ijtimoiy ta'siri va jamoatchilik fikriga ta'sir mexanizmlari Milliy va xalqaro jurnalistika amaliyotida etik me'yorlar va standartlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Axborot materiallarining sifati, haqqoniyligi va aniqligi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi Tahririy siyosat va kasbiy etika talablariga muvofiqligini mustaqil ravishda baholash va ta'minlash Nashrga tayyorlangan materiallar bo'yicha yakuniy qaror qabul qilishda mustaqillikka ega, ammo umumiy muharririy siyosatga hisobdor bo'lish Mualliflar bilan hamkorlikda tuzatish va o'zgartirishlarni kiritishda mas'uliyatli rahbarlikni amalga oshirish
Texnik va/yoki texnologik talab		Shaxsiy kompyuter (desktop va noutbuk) – matn, tahrir, rejalashtirish va tahlil ishlari uchun Matn tahririy dasturlari – MS Word, Google Docs, LibreOffice, Grammarly (til va imlo nazorati uchun) Grafik va dizayn dasturlari – Adobe Photoshop, Canva (rasmlar va infografika tayyorlash uchun) Axborot bazalari va ma'lumotlar tizimlari – media monitoring, press-relizlar va statistik axborot uchun Elektron pochta va aloqa platformalari – Outlook, Gmail, Telegram, Slack, Zoom

Kasbning nomi:	Iqtisodiy masalalar bo'yicha sharhlovchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	26421	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1-yillik ish staji talab etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Ishga munosabat va xulq-atvor: -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. -Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish;	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat, o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	xizmatchi Mutaxassis Iqtisodiy masalalar bo'yicha sharhlovchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Badiiy muharrir
	6	Gazeta muharriri
	6	Mas'ul muharrir

		6	Muharrir
		6	Sharhlovchi
		6	Siyosiy sharhlovchi
		6	Mas’ul chiqaruvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
B1.6- Iqtisodiy tahlil va prognozlardan foydalanish	B1.01.6- Milliy hamda xalqaro iqtisodiy ko’rsatkichlar bo’yicha tahlil ishlarini olib borish	O’qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Milliy va xalqaro iqtisodiy ko’rsatkichlarni yig’ish, tahlil qilish va ularni taqqoslash	
		2. Iqtisodiy jarayonlar dinamikasini aniqlash maqsadida statistik ma’lumotlar asosida tahliliy hisobotlar tayyorlash	
		3. Olingan tahlil natijalari asosida iqtisodiy jarayonlarga oid sharh va xulosalar ishlab chiqish	
		Ko’nikmalar:	
		Iqtisodiy va statistik ma’lumotlar bilan ishlash, ularni tahlil qilish va vizuallashtirish	
		Tahliliy natijalarni jurnalistik materiallarda aniq, tushunarli va xolis tarzda ifodalash	
		Xalqaro iqtisodiy manbalar va ma’lumotlar bazalari (IMF, World Bank, WTO va boshqalar)dan foydalanish	
		Bilimlar:	
		Milliy va xalqaro iqtisodiy ko’rsatkichlarning mazmuni, turlari va ularni tahlil qilish usullari	
		Iqtisodiy jarayonlar, global moliya va savdo tizimlari	
		Iqtisodiy tahlil, prognozlash va axborot manbalarini baholash metodologiyasi	
	B1.02.6- Statistik ma’lumotlar, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy indikatorlarni o’rganib, ular asosida kelgusidagi iqtisodiy ahvol bo’yicha prognozlarni tuzish	Mehnat harakatlari:	
		1. Makro va mikroiqtisodiy ko’rsatkichlar bo’yicha ma’lumotlarni yig’ish, tizimlashtirish va tahlil qilish	
		2. Olingan statistik ma’lumotlar asosida iqtisodiy tendensiyalarni aniqlash va ularning ta’sir omillarini baholash	
		3. Tahliliy natijalar asosida iqtisodiy o’sish, inflyatsiya, bandlik va boshqa jarayonlar bo’yicha qisqa va o’rta muddatli prognozlarni tuzish	
		Ko’nikmalar:	
		Iqtisodiy va statistik ko’rsatkichlarni tahlil qilish, ularni modellashtirish va prognozlash	
		Tahliliy axborotni vizual grafiklar, jadval va infografika ko’rinishida taqdim etish	
		Prognoz natijalarini ommaviy axborot vositalarida aniq, asosli va tushunarli shaklda yoritish	
		Bilimlar:	
		Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy indikatorlarning mazmuni, o’zaro bog’liqligi va baholash mezonlari	
		Iqtisodiy prognozlash usullari (ekstrapolyatsiya, regressiya, ssenariy tahlili va boshqalar)	

		Iqtisodiy tahlil va prognozlarda qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy vositalar (Excel, SPSS, Stata va boshqalar)
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tahlil va prognoz natijalarining to'g'riligi, asoslanganligi va ishonchliligi uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		2. Iqtisodiy jarayonlarga oid qarorlar yoki tavsiyalarni ishlab chiqishda mustaqil fikr yuritish va tahlil natijalariga tayanish
		3. Ma'lumotlarni tanlash, ularni talqin etish va iqtisodiy prognozlarni tuzishda professional mustaqillikni saqlash
		4. Tahliliy ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish yoki ularni siyosiy yoki subyektiv manfaatlarda qo'llashga yo'l qo'ymaslik uchun mas'uldir
B2.6- Iqtisodiy siyosat va qarorlar ta'sirini baholash	B2.01.6- Hukumat yoki boshqa tashkilotlar tomonidan kiritilayotgan iqtisodiy siyosat, qonun yoki tashabbuslarnin g ijtimoiy- iqtisodiy samarasini tahlil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Yangi iqtisodiy qonun, dastur yoki qarorlarning ishlab chiqilish maqsadi va kutilayotgan natijalarini o'rganish
		2. Iqtisodiy tashabbuslarning aholiga, tadbirkorlarga va bozor segmentlariga ta'sirini tahlil qilish
		3. Tahlil natijalari asosida xulosa va takliflarni tayyorlab, ularni jurnalistik material shaklida yoritish
		Ko'nikmalar:
		Iqtisodiy siyosat tahlilini amalga oshirish va faktlarni solishtirish
		Analitik ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari uchun tushunarli tarzda taqdim etish
		Rasmiy manbalar va ekspert fikrlaridan samarali foydalanish
		Bilimlar:
		Milliy iqtisodiyot tuzilmasi va iqtisodiy siyosat yuritish mexanizmlari
		Qonunchilikda iqtisodiy islohotlar bilan bog'liq normativ-huquqiy asoslar
		Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil metodlari va axborotni baholash mezonlari
	B2.02.6- Soliqlar, tariflar, import-eksport regulyatsiyasi kabi masalalar bo'yicha ta'sirini o'rganib, tavsiyalar ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Soliq siyosati, bojxona to'lovlari va tarif o'zgarishlari bo'yicha rasmiy hujjatlar va qarorlarni tahlil qilish
		2. Import-eksport regulyatsiyasi iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ko'rsatadigan ta'sirini baholash
		3. Olingan tahliliy natijalar asosida iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Soliq va tarif siyosatining iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilish
		Iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash va tavsiyalarni asosli tarzda shakllantirish
		Jahon tajribasini solishtirish asosida milliy iqtisodiy siyosatni tahlil etish
		Bilimlar:
		Soliq tizimi, tarif siyosati va tashqi savdo regulyatsiyasi asoslari

		Makroiqtisodiy tahlil usullari va iqtisodiy baholash mezonlari Import-eksport faoliyatiga oid xalqaro iqtisodiy kelishuvlar va amaliyotlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Iqtisodiy siyosatga oid axborotning aniqligi va ishonchliligi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish 2. Tahliliy materiallar uchun tahririyat oldida mustaqil javobgarlik 3. O'z faoliyatini axborot erkinligi va ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlar asosida yuritish 4. Iqtisodiy jarayonlarga baho berishda mustaqil fikr va professional xulosa chiqarish 5. O'zining tahliliy faoliyatida axloqiy me'yorlar, obyektivlik va muvozanatlilik tamoyillariga amal qilish
B3.6- Hisobot va sharh tayyorlash hamda axborot yetkazish	B3.01.6- Tahliliy maqolalar, sharhlar, iqtisodiy hisobotlar tayyorlash va ularni keng auditoriyaga tushunarli shaklda yetkazish	Mehnat harakatlari: 1. Iqtisodiy mavzular bo'yicha dolzarb ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va asosiy xulosalarni aniqlash 2. Tahliliy maqola va sharhlarni ommaviy axborot vositalari formatiga mos ravishda tayyorlash 3. Murakkab iqtisodiy jarayonlarni keng jamoatchilik uchun sodda, aniq va tushunarli shaklda ifodalash Ko'nikmalar: Analitik yozuvlar, sharhlar va hisobotlar tayyorlash Murakkab iqtisodiy termin va ma'lumotlarni ommaga qulay tilda bayon etish Ma'lumotlarni grafik, jadval yoki vizual shaklda taqdim etish orqali axborot yetkazish samaradorligini oshirish Bilimlar: Iqtisodiy tahlil va jurnalistik yozuv janrlari xususiyatlari Ommaviy axborot vositalarida axborot berishning uslublari va tahrir tamoyillari Milliy va global iqtisodiy jarayonlar, ularning asosiy ko'rsatkichlari va tahlil metodlari
	B3.02.6- Bozor, valuta kursi, inflyatsiya, investitsiyalarning holati kabi dolzarb mavzular bo'yicha matbuot uchun sharhlar tayyorlash	Mehnat harakatlari: 1. Bozor konyunkturasi, valuta kurslari, inflyatsiya darajasi va investitsiyalar bo'yicha yangilangan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish 2. Olingan iqtisodiy ma'lumotlarni sharhga mos tarzda tizimlashtirish va asosiy xulosalarni ishlab chiqish 3. Matbuot nashrlari talablari va auditoriya ehtiyojlariga muvofiq tarzda analitik sharhlar yozish Ko'nikmalar: Iqtisodiy statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni jurnalistik materialga aylantirish Iqtisodiy terminologiyani to'g'ri qo'llash va murakkab jarayonlarni sodda shaklda ifodalash Matbuot uchun maqola va sharhlarni stilistik, mazmuniy va tahririy jihatdan tayyorlash

		Bilimlar:
		Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari, valuta siyosati va inflyatsiya jarayonlari nazariyasi
		Investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar
		OAV (ommaviy axborot vositalari) uchun iqtisodiy materiallar tayyorlashning uslublari va janr talablari
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Tahliliy hisobot va sharhlarning aniqligi, ishonchliligi va obyektivligi uchun shaxsan mas’ul bo’lish
		2. Iqtisodiy ma’lumotlarni talqin qilishda professional mustaqillikni saqlash, tashqi bosim yoki subyektiv ta’sirlarga berilmaslik
		3. Tayyorlangan hisobotlar va sharhlarning ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinish oqibatlari uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olish
		4. Ma’lumot manbalarini tekshirish, faktlarni tasdiqlash va xulosalarni asoslashda mustaqil qaror qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		
Kompyuter va noutbuk Ofis dasturlari (MS Office, Google Workspace va h.k.) Malakali statistika va tahlil dasturlari R, Stata, SPSS, EViews Bazaviy ma’lumotlar bazalari va iqtisodiy ko’rsatkich portallari Milliy statistika agentligi, bank, xalqaro tashkilotlar API/portallari (World Bank, IMF, OECD va h.k.) Veb-analitika vositalari Google Analytics, web statistikasi, trafik ma’lumotlari bilan ishlash Vizualizatsiya va grafik dasturlari Tableau, Power BI, matplotlib/seaborn (Python), Excel chizmalar Axborot tarqatish platformalari Blog, veb-sayt, jurnal, ijtimoiy tarmoqlarda sharh va maqolalarni joylashtirish (CMS: WordPress va h.k.)		

Kasbning nomi:	Badiiy muharrir	
Mashg'ulot nomining kodi:	26422	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1-yillik ish staji talab etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Ishga munosabat va xulq-atvor: -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat, o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Xizmatchi Mutaxassis Badiiy muharrir	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Muxbirlar byurosi mudiri
	6	Iqtisodiy masalalar sharhlovchisi
	6	Gazeta muxbiri
	6	Gazeta muharriri
	6	Mas'ul muharrir
	6	Muharrir
	6	Sharhlovchi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.6- Mavzuni tanlash, materiallarni saralash va tayyorlash	D1.01.6- Axborot manbalaridan dolzarb ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va auditoriya uchun muhim mavzularni ajratib olish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Turli axborot manbalari (OAV, ijtimoiy tarmoqlar, tahliliy hisobotlar, ekspert fikrlari)dan dolzarb ma'lumotlarni izlab topish va ularni ishonchlilik nuqtai nazaridan tekshirish
		2. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ijtimoiy ahamiyati, auditoriya manfaatiga ta'sir darajasini aniqlash va mavzularni tasniflash
		3. Auditoriyaning ehtiyojlari, joriy siyosiy-iqtisodiy vaziyat va madaniy kontekstni inobatga olgan holda eng muhim mavzularni tanlab olish va tahririy kengashga taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Axborot oqimini tezda tahlil qilish, dolzarb voqealarni tanlab olish va ularni ustuvorlik bo'yicha ajratish
		Turli manbalar bilan ishlash, faktcheking (ma'lumotlarni tekshirish) va analitik xulosalar chiqarish
		Auditoriya tahlili, kontent rejalashtirish va ijtimoiy-siyosiy kontekstni hisobga olgan holda mavzu dolzarbligini aniqlash
		Bilimlar:
		Axborot nazariyasi, jurnalistika etikasi va tahliliy jurnalistika metodlari
		Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, madaniyat, iqtisod va auditoriya psixologiyasi
		Axborot manbalarining turlari, ularning ishonchlilik mezonlari, shuningdek, faktcheking va media-tahlil texnologiyalari
	D1.02.6- Mualliflik materiallarini tanlash, ularning sifatini tekshirish va nashr uchun mosligini baholash	Mehnat harakatlari:
		1. Mualliflik materiallarini tahririyat siyosati, janr talablari va nashr konsepsiyasiga muvofiqligini inobatga olgan holda tanlash
		2. Matnning mazmuniy aniqligi, uslubiy yaxlitligi, mantiqiy tuzilishi va tahririy standartlarga muvofiqligini tekshirish
		3. Materialning badiiy, axloqiy, huquqiy va faktologik to'g'riligini baholash hamda nashr uchun tavsiya etish va qayta ishlash
		Ko'nikmalar:
		Mualliflik materiallarini tahlil qilish, badiiy uslub, g'oya va mazmun uyg'unligini baholash
		Tahririy mezonlar asosida matnlarni tanqidiy ko'z bilan baholash, kamchilik va ustunliklarni aniqlash
		Muallif bilan professional muloqot o'rnatish, tahririy izoh va tavsiyalarni aniq shaklda yetkazish
		Bilimlar:
		Adabiyotshunoslik, stilistika, tahrir nazariyasi va matn tahlili asoslari

		Mualliflik huquqi, nashr etikasi, intellektual mulk va plagiat masalalari
		Nashr jarayoni, tahririy siyosat, janr va uslub talablari, shuningdek, auditoriya xususiyatlari
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Nashr yo’nalishi va auditoriya ehtiyojlariga mos mavzularni tanlashda ijodiy va tahliliy qarorlar qabul qilish hamda ularning dolzarbligi uchun javobgar bo’lish
		2. Mualliflik materiallarini saralashda, ularning ishonchliligi, yangiligi va badiiy qiymatini baholashda mustaqil fikr yuritish
		3. Tanlangan materiallarning nashr konsepsiyasiga mosligini ta’minlash hamda tahrirga tayyorlash jarayonida shaxsiy mas’uliyatni o’z zimmasiga olish
		4. Axborot manbalarining ishonchliligi, mualliflik huquqlari va nashr siyosatiga muvofiqligi bo’yicha yakuniy qarorlarni mustaqil qabul qilish
5. Tahririyat jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish, lekin yakuniy tanlov va material tayyorlash bosqichida mustaqillikni saqlash		
D2.6- Nashr loyihalarini qayta ishlash (tahrirlash)	D2.01.6- Matnlarning mazmuni, tuzilishi, faktik to’g’riligi va uslubini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish	Mehnat harakatlari:
		1. Matnning mantiqiy tuzilishini, mazmuniy yaxlitligini va faktik aniqligini tekshirish, noto’g’ri ma’lumotlarni aniqlash
		2. Til, uslub, grammatik, tinish belgilar va leksik ifoda jihatlaridagi kamchiliklarni tahririy me’yorlarga muvofiq tuzatish
		3. Tahrir jarayonida mualliflik uslubini saqlagan holda matnni o’quvchi uchun tushunarli, izchil va badiiy jihatdan silliq holatga keltirish
		Ko’nikmalar:
		Matnni semantik, grammatik va stilistik tahlil qilish
		Fikr izchilligini saqlagan holda mazmuniy tahrir, qisqartirish yoki kengaytirish bo’yicha tahririy qarorlar qabul qilish
		Tahrirlangan materialni nashr standarti va auditoriya talablariga muvofiq shakllantirish
		Bilimlar:
	Tilshunoslik, uslubshunoslik, leksikologiya va tahrir nazariyasi	
	Faktologik tekshiruv usullari, ishonchli axborot manbalarini tanlash va tekshirish tamoyillari	
	Nashr standartlari, imlo qoidalari, yozuv madaniyati va axborot ishonchliligi talablari	
D2.02.6- Mualliflar bilan hamkorlikda loyihalarni takomillashtirish, konsepsiyani	Mehnat harakatlari:	
	1. Mualliflik loyihasining mazmuniy yo’nalishi, g’oyaviy asoslari va auditoriyaga mosligini tahlil qilib, takomillashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqish	
		2. Mualliflar bilan muloqot o’rnatib, tahririy va konseptual o’zgarishlar yuzasidan kelishilgan yechimlar ishlab chiqish

	ishlab chiqish va zarur tuzatishlarni kiritish	3. Loyihaning umumiy konsepsiyasiga muvofiq matn, vizual yoki struktural elementlarni qayta ishlash, tuzatish va yakuniy tahrirga tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Muallif bilan samarali hamkorlik va tahririy muloqotni yo'lga qo'yish
		Konseptual tahlil, g'oyani aniqlash va materialni auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish
		Loyihani tahririy mezonlar asosida takomillashtirish, zarur tuzatishlarni o'z vaqtida va aniq kiritish
		Bilimlar:
		Badiiy ijod, publitsistika va media-loyihalarni yaratish konsepsiyasi hamda ularning janr xususiyatlari
		Tahrir jarayonida mualliflik huquqi, intellektual mulk me'yorlari
		Tahrir va nashr jarayonining bosqichlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Nashr loyihasining mazmuni, uslubi va umumiy sifat ko'rsatkichlari uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		2. Tahrir jarayonida mualliflik niyatini buzmaganda holda mustaqil qaror qabul qilish, zarur hollarda muallif va nashr rahbariyati bilan muvofiqlashtirish
		3. Tahririy yechimlar, matn o'zgarishlari va dizayn elementlari bo'yicha tashabbus ko'rsatish, ularning professional darajada bajarilishini nazorat qilish
		4. Nashr jarayonida aniqlangan faktik, grammatik yoki stilistik xatolar uchun mas'ul bo'lish va ularni bartaraf etish bo'yicha yakuniy qarorlarni mustaqil qabul qilish
		5. Noshirlik etikasi, mualliflik huquqi va axborot siyosati me'yorlariga qat'iy rioya qilgan holda, ijodiy jamoa ishini muvofiqlashtirishda yetakchilik qilish
D3.6- Tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarni boshqarish	D3.01.6- Auditoriya, davlat idoralari, ekspertlar va professional hamjamiyat bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish	Mehnat harakatlari:
		1. Davlat idoralari, tahririyat hamkorlari, ekspertlar va auditoriya vakillari bilan axborot almashish va fikr-mulohazalarni olish bo'yicha muloqot tashkil etish
		2. Nashr yoki loyiha mavzusiga oid dolzarb masalalar yuzasidan muvofiqlashtiruvchi uchrashuvlar, intervyular va rasmiy yozishmalarni olib borish
		3. Professional hamjamiyat bilan tahririy siyosat, kontent sifati va yangiliklar almashinuvi bo'yicha o'zaro tajriba almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish
		Ko'nikmalar:
		Professional muloqot madaniyati va rasmiy yozishmalarni yuritish
		Auditoriya bilan tahliliy va tanqidiy fikr almashish, fikrlarni tahririy qarorlarga integratsiya qilish
		Turli manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv muzokara olib borish va kelishilgan qarorlar qabul qilish

